# Zamonaviy sharoitda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashning nazariy-metodologik jihatlari

**Murtalibova Malika Mirmaksudovna (PhD)**
*Astraxan davlat texnika universiteti*
*Toshkent viloyati filiali*

**Annotatsiya**. Mazkur maqolada global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik tushunchalarining nazariy asoslari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Xalqaro munosabatlar tizimida o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi, yangi tahdid va xatarlarning paydo bo‘lishi sharoitida xavfsizlik masalasining dolzarbligi yoritiladi. Shuningdek, xavfsizlik tushunchasining turli ilmiy yondashuvlari, jumladan, an’anaviy va noan’anaviy talqinlari ko‘rib chiqilib, uning harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik o‘lchovlari ochib beriladi. Tadqiqotda global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikning o‘zaro bog‘liqligi hamda zamonaviy xalqaro munosabatlardagi ahamiyati tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** xavfsizlik, global xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, tahdid, sekyuritizatsiya, xalqaro munosabatlar, xavf-xatarlar, barqarorlik.

**Annotation**

This article examines the theoretical foundations and distinctive features of global, regional, and national security. It highlights the growing importance of security issues in the context of increasing interdependence in international relations and the emergence of new threats and challenges. The study analyzes various approaches to the concept of security, including both traditional and non-traditional perspectives, and explores its military, political, economic, social, and environmental dimensions. Furthermore, the article discusses the interrelationship between global, regional, and national security and evaluates their significance in contemporary international relations.

**Keywords:** security, global security, regional security, national security, threats, securitization, international relations, risks, stability.

## Global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik: tushuncha va xususiyatlari

Xalqaro munosabatlarda o‘zaro bog‘liqlikning tobora mustahkamlanib borishi sharoitida mintaqaviy va xalqaro darajadagi xavfsizlik muammosini hal etish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, davlatlarning jahon siyosatiga bo‘lgan ta’sirchanligini oshirishda nafaqat harbiy, balki iqtisodiy va ekologik omillar yetakchi rol o‘ynayotgani hech birimiz uchun sir emas. Fan va texnologiyaning jadal sur’atlarda rivoj topishi sharoitida xavfsizlik muammolari mohiyatini anglashda yangicha yondashuvlarni ilgari surish muhim hayotiy zaruratga aylanib bormoqda. Zotan, so‘nggi yillarda xavfsizlik va mudofaa sohasida nodavlat aktorlarning mavqei ham tobora ortib bormoqda.

Xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatlar bilan birgalikda azaliy faoliyat yuritib kelayotgan o‘ziga xos hodisadir. Insoniyat o‘z taraqqiyoti mobaynida urushlar, terroristik hurujlar, odam savdosi kabi muammolar bilan ro‘baro‘ bo‘lib kelgan.

Ma’lumki, xavfsizlik deganda, hayotiy muhim qadriyatlarning tahdidlardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Biroq, xavfsizlik kategoriyalari va ular o‘rtasidagi aloqadorlik xususida so‘z yuritishdan avval, mazkur tushunchaning mohiyatiga batafsil to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Siyosiy lug‘atlarda xavfsizlikga – xavfsiz holat, xavotir, xavf yoki qo‘rquvdan holi bo‘lishlik, bir so‘z

bilan, himoyalanganlik holati sifatida ta’rif berilgan.[1] Uilyam Otoyeul tomonidan ilgari surilgan ta’rifga ko‘ra, “Xavfsizlik – jamoatchilik tomonidan ularning xavfsizligini ta’minlovchilarga bo‘lgan ishonch hissining mavjudligidir”.[2] Mazkur ta’rifga ko‘ra, xavfsizlik – bu jamoat ishonchi va uni kafolatlaydigan xavfsizlik tizimini yaratish yo‘li bilan mavjud xavf – xatarlardan himoyalanganlik holatidir.

Biroq, xavfsizlikga bir tomonlama yondashish yoki baxo berish bugungi zamon xolatiga ko‘ra xato xisoblanadi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda tahdidlarning ortib brishi xavfsizlikga nisbatan an’anaviy qarashlarni biroz shubxa ostiga qo‘yib, faqat harbiy va qattiq kuchga asoslanib qolmay, u turli mafkuraviy, g‘oyaviy va ijtimoiy munosabatlarda ham o‘z aksini topmoqda. Xususan, B. Buzan xavfsizlikni sekyuritizatsiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlagani xolda, u harbiy tahdidlardan tashqari xavfsizlikning noan’anaviy tushunchalari bo‘lmish siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o‘lchovlarni ham qamrab olishini ta’kidlaydi.[3]

Ma’lumki, xavfsizlik tushunchasining mohiyatini ochib berishga qaratilgan ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning orasida quyidagi ikki yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi:

*Birinchi yondashuv*ga ko‘ra, xavfsizlik deganda turli salbiy omillar ta’sirida o‘zligini saqlab qolish bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayon tushuniladi. Ayni shu nuqtai nazardan, xavfsizlik deganda muayyan tizimga xos bo‘lgan xususiyat tushuniladi. Bugungi kunda xavfsizlikni o‘ziga xos bo‘lgan mavjud xususiyat va sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qolishga imkon beruvchi, o‘zini-o‘zi boshqarish tizimi sifatida anglash nisbatan keng tarqalgan.

*Ikkinchi yondashuv* esa, xavfsizlik fenomenining subyektiv xususiyati tan olinishi bilan xarakterlanadi. Unga ko‘ra, xavfsizlik muayyan qadriyatlar va mavjud hodisaga aloqador bo‘lgan tushunchalarning asosini tashkil etadi. Jumladan, ayrim tadqiqotchilar xavfsizlikni manfaatlarning hosilasi sifatida tasavvur qiladilar.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, zamon va makonlarning almashinuvi xavfsizlik tizimida ham bir qator o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Shunga ko‘ra, yangi tahdid va xatarlar, zamonaviy qurol-yarog‘ va taraqqiyot namunalari xavfsizlikga oid yangi paradigmalarni ilgari surish va xavfsizlik tizimini takomillashtirishda ulardan keng foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda oliy qadriyat hisoblangan shaxs va jamiyatning xavfsizligi ideal va qadriyatlar majmui hamda o‘zgaruvchan ichki va tashqi muhit ta’siri bilan belgilanadi. Masalan, AQSH milliy xavfsizlik strategiyasining bosh g‘oyasi, mazkur davlatning milliy va global miqyosdagi xavfsizligini ta’minlashdan iborat bo‘lib, bunda Amerikaning dunyoga hukmronligi hamda boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy va harbiy ustunligini o‘rnatmay turib erishib bo‘lmasligi bayon etiladi.[4]

Ayni paytda, siyosiy fanlar doirasida nisbatan keng qo‘llaniladigan tushunchalardan biri aynan xavfsizlik fenomeni bilan bog‘liq. Zero, xavfsizlik o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’minlangan, to‘kislik, ishonch, xotirjamlik, himoyalanganlik va xavflardan holi bo‘lishlik kabi tushunchalar bilan o‘zaro hamohangdir. Xavfsizlik fenomenini bir qator muhim tushunchalar bilan bog‘liq holda shakllanganligini qo‘shimcha qilish joiz. Xususan, bular:

***xavfsizlik paradigmasi*** – jamiyatda barqaror taraqqiyotning fundamental asoslariga nisbatan qaror topgan mafkuraviy qarashlar. Doktrinal komponentlar hamda xavflarni bartaraf etish kabilarga qaratilgan amaliy choralarga asoslangan xavfsizlik modellari bo‘lib, ular xavfsizlik sohasidagi muayyan masalalarni tartibga solish imkonini beradi;

***xavfsizlik madaniyati*** – muayyan ijtimoiy guruhni “o‘zgalar”, “begonalar”dan ajratishga asoslangan ramzlar, obrazlar, g‘oya va tasavvurlar yig‘indisi. Xavfsizlik madaniyati “xavfsizlik manzillari”ni belgilash hamda ularni bir-biridan chegaralash imkonin beruvchi me’zonlarni shakllantiradi;

***xavfsizlik chegarasi*** – turli “xavfsiz makonlar”ni aniqlab beruvchi chegara bo‘lib, u ommaviy siyosat doirasida muayyan o‘zgarishlarni boshdan kechiruvchi tasavvurlarga bog‘liq hisoblanadi;

***xavfsizlik rejimi*** – bu xavfsizlik jarayoni aktorlarining xulq-avtorini tartibga soluvchi hamda davlatlaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi o‘zaro prinsiplar, qoida va normalar yig‘indisidir;

***xavfsizlikni boshqarish*** - xavfsizlik subyektlari o‘rtasidagi hayotiy muhim manfaatlarni belgilab beruvchi muhim sohalardagi hamkorlik aloqalariga oid tartib-tamoyillar majmuidir.[5]

Bir so‘z bilan aytganda, xavfsizlik – xavf tug‘diruvchi va tahdid soluvchi obyektlarning muayyan subyektga ta’sir ko‘rsata olmaslik holatidir. Ammo amalda xavflardan mutlaqo holi bo‘lishlik imkonsiz. Zero, bashariyat tamaddunida xavf-xatarlar hamisha mavjud bo‘lgan va kelgusida ham saqlanib qoladi. Shundan kelib chiqib, xavfsizlik ko‘lamiga ko‘ra ajratib olish juda muhim xisoblanadi. Bular, shaxsiy (individual yoki yakka tartibda, ya’ni cheklangan alohida shaxslar, obyektlarga va boshqalarga nisbatan), milliy (biror makonda yoki chegaralarda yashovchi millat, xalq, davlatga oid), mintaqaviy (bunda aniq bir makon, gyeografik chegaralarga ega makon, mintaqaga nisbatan umumiy olingan) global (bu yerda butun dunyo yoki bashariyatga tegishli bo‘lgan xavfsizlik nazarda tutiladi) xavfsizlikdir.[6]

Xavfsizlik muammolari haqida so‘z borar ekan, bunda avvalo, mavjud muammoning boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan milliy xavfsizlik kategoriyasiga batafsil to‘xtalish maqsadga muvofiq sanaladi.

***Milliy xavfsizlik*** – alohida davlatlar miqyosidagi xavfsizlik darajasi bo‘lib, bunda davlatlarning suvereniteti va hududiy daxlsizligiga nisbatan tajovuz va bosqinlar ko‘rinishidagi xavflardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Mavjud vaziyat davlatlar tomonidan ichki va tashqi siyosatini mustaqil ravishda yuritish hamda davlatning ichki ishlariga nisbatan tashqi aralashuvlarga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi. Davlat xavfsizligining muhim elementi sifatida inson huquqlarining ta’minlanganligi hamda jamiyatning hayotining normal tarzda faoliyat yuritishi kabilarni keltirish mumkin.

“Milliy xavfsizlik” atamasi ilmiy adabiyotlarda nisbatan yangi tushuncha bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmiga qadar Osiyo va Yevropa davlatlari uchun “mudofaa qobiliyati” va “davlat xavfsizligi” tushunchalari ustunlik kasb etgani bois, mazkur atama ular uchun yod sanalgan. Mazkur atama ilk bor 1904 yilda T.Ruzvelt[7] tomonidan AQSH Kongressiga yo‘llagan murojaat chog‘ida tilga olingan. Konsepsiyaning o‘ziga esa, 1947 yilda “Milliy xavfsizlik to‘g‘risidagi qonuning qabul qilinishi munosabati bilan asos solingan bo‘lib, uning zamirida AQSH Milliy xavfsizlik kengashi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.[8] So‘nggi yillarda mazkur muammo amerikalik tadqiqotchi olimlarning diqqat markazidan joy egallagan bo‘lib, ular muammoning muhim manbasi sifatida “milliy manfaatlar”ga alohida e’tibor qaratadilar.

Bugungi kunda “milliy manfaatlar” tushunchasini talqin etishga doir ko‘plab yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq.

- “milliy manfaatlar” tushunchasini talqin etuvchi *dastlabki yondashuv* tarafdorlari unga etnik nuqtai nazardan baho beradilar hamda undan genetik va madaniy jihatdan o‘zaro aloqador bo‘lgan milliy birlik manfaatlarini o‘zida ifodalaydigan atama sifatida foydalanish mumkinligini e’tirof etadilar. Mavjud yondashuvni etnosiyosiy nuqtai nazardan amalda qo‘llash o‘rinlidir. Shu o‘rinda, “milliy manfaatlar” va “davlat manfaatlari” tushunchalarini yaxlit tushuncha sifatida qo‘llash to‘g‘ri emasligini ham ta’kidlash joiz;
- *ikkinchi yondashuv,* “milliy manfaatlar” davlat tashqi siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim bo‘lgan tushunchadir;
- “milliy manfaatlar”ga milliy davlatchilik tuzilmalari ega bo‘lishlari mumkinligi borasidagi qarashlar uchinchi yondashuv vakillari tomonidan ilgari suriladi. Ularning fikricha, bunda fuqarolik jamiyatiga davlat hokimiyati tuzilmalaridan sezilarli darajada mustaqil bo‘lish imkoni yaratilishi talab etiladi. Mavjud yondashuvni ideal huquqiy davlatlar misolida qo‘llash kutilgan samarani berishi tabiiy. Ma’lumki, huquqiy davlatda xalqning irodasini o‘zida ifodalaydigan mexanizmlar mavjud bo‘lib,

bunda davlatlar muayyan guruhlar emas, balki chin ma’nodagi milliy manfaatlarni amalga tatbiq etuvchi kuch sanaladi;

- keng yoyilgan *yondashuv*lardan yana biri, ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning qarashlarini o‘zida ifodalagan bo‘lib, unga ko‘ra, “milliy manfaatlar”ni umumiy tushuncha sifatida “davlat manfaatlari”ga nisbatan yaqin tushuncha sifatida ifodalangan. Mazkur guruh olimlarining fikricha, kundalik faoliyatimiz davomida doimiy ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, geosiyosiy, konfessional va milliy xarakterdagi omillar mavjud bo‘lib, turli vaziyatlarda ular davlatlarning milliy manfaatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy va mintaqaviy xavfsizlik masalalarini o‘zaro bog‘liq holda, o‘rganish asnosida o‘ziga xoslikni ko‘rish mumkin bo‘ladi. Bu borada mintaqaviy miqyosda kechuvchi xalqaro aloqalarning faol ishtirokchilari bo‘lgan davlatlar, mintaqaviy institutlar, harbiy ittifoqlar, integratsion tashkilotlar va boshqalar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni o‘rnatish bilan bog‘liq milliy xavfsizlikning tashqi jihatlari ko‘zga tashlanadi. Zero, mintaqaviy xavfsizlik deganda, muayyan mintaqada joylashgan aholi, hududiy birliklar va iqtisodiy taraqqiyotning barqaror rivoji va xavflardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Mintaqaviy xavfsizlik davlatning yaxlit xavfsizligiga o‘z ta’sirini o‘tkazgani bois, biz uni davlat xavfsizligining bir qismi sifatadi ham ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Bugungi kunda xavfsizlikga tahdid soluvchi omillar tobora faol tus olayotgani hech birimiz uchun sir emas. Xususan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik,[9] xududiy, texnogen, energetik, axborot texnologiya xavfi kabi omillar eng e’tiborga molik bo‘lgan muammolar sirasiga kiradi.[10]

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni hal etishda kompleks yondashuvlarni ishlab chiqish hamda hukumatlararo va tashkilotlararo hamkorlikni kuchaytirish kun tartibida turgan xavfsizlikga oid masalalar orasida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

References:


1. Merriam-Webster: America’s Most Trusted Dictionary // URL.: Merriam-Webster: America's Most Trusted Dictionary
2. William O’Toole et al (2019) ‘Chapter 7 Security Theory Process, Definitions, Tools And Techniques’ // URL.: https://www.goodfellowpublishers.com/free_files/Chapter%2078990ad6769fa98283113b43e4ddd9a2a.pdf
3. Barry Buzan. The Evolution of International Security Studies. Cambridge University Press. June 2012. – P. 26. https://doi.org/10.1017/CBO9780511817762 https://www.cambridge.org/core/books/evolution-of-international-security-studies/BB04557E83B673F58799E2B62FA83DA1#
4. NATIONAL SECURITY STRATEGY OF THE UNITED STATES. https://www.cia.gov/readingroom/document/cia-rdp01m00147r000100130005-8
5. Баранов Н.А. Национальная безопасность и механизмы ее обеспечения // www.nicbar.ru
6. Barry Buzan with Ole Wæver. Regions and Powers: The Structure of International Security. 2003, Cambridge University Press. https://www.cambridge.org/core/books/regions-and-powers/
7. Теодор Рузвельт АҚШнинг 26-президенти. Республикачи, тинчлик бўйича нобель мукофоти эгаси.
8. National Security Act. https://www.britannica.com/topic/National-Security-Act

9. Buzan B. People, States, and fear: The national security Problem in International Relations. First published in Great Britain in 1983. – P. 24.http://213.55.90.4/admin/home/Dmu%20Academic%20Resource/Postgraduate%20Studies/Political%20Science/IR_People%2C_States_and_Fear_National_Security_Problem_in_International_Relations__1983.pdf
10. Убайдуллаева С.Ф. Марказий Осиё хавфсизлик тизимида ўзаро боғликлик масалалари. Монография. – Т.: “Encyclopedia world”. 2022. – Б. 52.